

Xorijiy tillarning o'qitishning xalqaro tan olingan dastur va darsliklarini ta'limning barcha bosqichlarida joriy etish xususida

Avvalambor, assalomu alaykum!

O'zim haqida qisqacha ma'lumot bersam, men Temirbulatova Indira asli Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on shahrida tavallud topganman. Bugungi kunda Urganch davlat universiteti Ingliz tili va adabiyot kafedrasi o'qituvchisi bo'lib faoliyat yuritib kelmoqdaman. Maktabni Samarqandda bitirgach, 2004-yilda Samarqand davlat chet tillar instituti Koreys tili fakultetiga o'qishga qabul qilindim. 2007-yilda davlat granti asosida Janubiy Koreyaning nufuzli universitetlaridan biri bo'lmish Chungju universitetiga o'qishga qabul qilindim. 1yil davomida u yerda tahsil olgach, o'qishni Tejon shahridagi Peje universitetiga ko'chirib, 2010-yilda a'lo baholarda bitirdim, 2010-yil Chungnam universitetiga magistratura bosqichiga o'qishga qabul qilindim. 2013-yilda o'qishni muvaffaqiyatli bitirishga muvaffaq bo'ldim.

Bizga ma'lumki, bugungi kunda xorijiy tillarga nisbatan talab va takliflarning kengayib borishini yaqqol ko'rishimiz mumkin. Bunda nafaqat g'arb davlatlari balki sharq davlatlaridan Janubiy Koreya davlati bilan bo'lgan munosabatlarni yaqqol misol qilib olishimiz mumkin.

Janubiy Koreya Respublikasi hamda O'zbekiston Respublikasi orasidagi o'zaro yaqin do'stona hamkorlik munosabatlari o'ta yuqori suratlarda takomillashib borishi nafaqat madaniy, iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy jabhalardagi o'zaro munosabatlar taraqqiyotida, balki ta'lim va ilm-fan sohalari rivojida ham sezilarli o'zgarishlar yuz berayotganligini ham ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Sh.M.Mirziyoyevning Janubiy Koreya Respublikasiga rasmiy tashrifi va ushbu tashrif doirasida ilm-fan va ta’lim sohasida ham qo’shma loyihalarning kengaytirilishini ta’minlovchi bir qator hujjatlarning imzolanganligi shundan dalolat beradi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida» Qarorlari, hamda yaqindagina O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o’rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib borish chora-tadbirlari to’g’risida” 2021 -yil 19-maydagi PQ-5117-son qaroriga muvofiq, shuningdek, mazkur sohada qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlarda xorijiy tillarni o’rganishni ommalashtirish bo’yicha tashkiliy chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish maqsadida olib borilayotgan ishlar bugungi kunda xorijiy tillarni naqadar muhim ahamiyat kasb etishini ko’rsatmoqda.

Aynan koreys tili sohasida gapiRADIGAN bo’lsam, o’zimni Janubiy Koreyadagi 7 yillik tajribam asosida, olgan bilim va ko’nikmalarimni o’zim ta’lim tarbiya berayotgan talabalarga qo’llashga harkat qildim. Va asosan adabiyotlarni deyarli barchasini chet el dasturlari hamda adabiyotlarini qo’lladim. Va aytishim joziki yuqori natijalar hamda ko’rsatkichlarga ega bo’ldik. Aynan Janubiy Koreya oliy ta’lim tizimi haqida gapiRADIGAN bo’lsak, asosan 4 til ko’nikmasi hisoblangan tinglab

tushunish, o'qish, yozish hamda gapishtirish rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish katta ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarning asosiy til ko'nikmalarini (tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapishtirish) rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish, shu jumladan oliy ta'lif muassasalarining xorijiy tillar kafedralalarini biriktirish orqali o'quvchilarning xorijiy tillarni chuqur o'rganishini tashkil etish.

Yaqinda bo'lib o'tgan koreys tilini bilish darajasi halqaro imtihonda o'zim hamda talabalarim bilan ishtirok etib, katta ko'rsatkichlarni ko'rsata oldik. Ya'ni Koreys tilining eng yuqori darajasi hisoblangan 5 va 6 darajani olishga muvaffaqat bo'ldik. Bu tajriba shundan dalolat beradiki, uzluksiz ta'lif tizimi uchun chet tillar bo'yicha xalqaro standartlarga muvofiq davlat ta'lif standartlarini, o'quv rejalarini va dasturlarini, o'quv hamda metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish va doimiy tarzda bu jarayonni nazorat qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu bilan birga dars jarayonida ta'lif oluvchilarning ko'nikmalarini mustahkamlash va qo'llashda ko'maklashish, shu jumladan xorijiy mutaxassislarni jalb qilish, dars jarayonida iqtidorli talabalarni jalb qilish ukar ishtirogida mahorat darslarini olib borish, ko'rik tanlovlarni olib borish, olimpiyadala ur tashkil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Temirbulatova Indira

Urganch davlat universiteti Ingliz tili va adabiyoti o'qituvchisi

